HIKMATLAR XAZINASI

EZOP

YOLG‘ONCHI CHO‘PON

masallar

HIKMATLAR XAZINASI

EZOP

YOLG‘ONCHI CHO‘PON

Qayta nashr

◆ masallar ◆

Toshkent
«Akademnashr»
2022

UO'K: 821.14-191
KBK: 84(0)3
E 29

E 29 Ezop.
Yolg'onchi cho'pon [Matn]: masallar / Ezop. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 48 b.

ISBN 978-9943-4296-0-4

UO'K: 821.14-191
KBK: 84(0)3

Miloddan avvalgi VI asrda yashagan yunon masalchisi Ezop ushbu janrning tom ma'nodagi yetuk vakili hisoblanadi. Uning qalamiga mansub masallarni o'qir ekan, har bir zamon va makondagi o'quvchi o'zini iztirobga solgan ko'plab savollarga javob topadi. Keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan mazkur kitob sizga manzur bo'ladi deb o'ylaymiz.

D.Quronovning erkin tarjimasi

ISBN 978-9943-4296-0-4

© Ezop «Yolg'onchi cho'pon».
© «Akademnashr», 2022.

JIZZAX VILOYAT AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI
INV № 2023/06-1035
« 6 » 07 2023 Y

TARJIMONDAN

So‘z san’atining eng qadimgi janrlaridan biri, shubhasiz, masaldir. Masalchilikning otasi sanalmish Ezop miloddan avvalgi VI asrda yashagan. Mutaxassislar unga nisbat beriluvchi ayrim masallar, asli, bundan-da qadimiyroq deya ta’kidlashadi. Hayratlanarlisi shuki, ushbu masallar hamon o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Hayotda – xoh uyda, xoh ishda va xoh ko‘chada bo‘lsin, bot-bot shunday hollarga duch kelasanki, beixtiyor Ezop masallaridan biri xayolingga keladi, uni aytib bermoqni istab qolasan...

Ezop masallarini o‘qiganda kundalik hayotda norozilanib yurgan narsalarning ko‘piga o‘zimiz sababchiligimiz, illatlarning ildizi o‘zimizda ekani oydinlashib qolaveradi.

Adabiyotning, badiiy obrazning mohiyatini soddaroq yo‘sinda tushuntirish uchun ko‘pincha masal tanlanadi. Masalning mo‘jaz voqeasi yordamida hayotda biz duch keladigan muammolarning soddagina yechimi beriladi. Ezop masallari har bir kishining kitob javonida turishga arziydi.

Dilmurod QURONOV

Burgut, zag'cha va cho'pon

Yuksak qoyadan shiddat bilan qo'zg'algan burgut suruvdagi qo'zichoqni ildi-yu ketdi. Zag'cha buni kuzatib turgandi, hasaddan ichi kuyib o'zining ham shunday qilgisi kelib qoldi. Zag'cha jon-jahdi bilan chinqirgancha bir qo'chqorga tashlandi: panjalari qalin junga o'ralashib qoldi-yu na uchishga, na qochishga imkon topoldi. Uning jon holatda pitirlayotganini ko'rgan cho'pon gap nimadaligini fahmladi-da, darhol tutib oldi: qanotlarini qirqib tashlab, o'zini ermak uchun bolalariga eltdi. Bolalari chuvillashib: «Bu qandoq qush?» – deya so'raganlarida cho'pon aytdi: «Men-ku buning zag'chaligini bilaman-a, ammo u o'zini burgut hisoblaydi-da!»

Alqissa, o'zingdan zo'rroqlar bilan bellashaman deb chiranganing bilan, hech ish chiqarolmaysan, kulgi bo'lganing qoladi, xolos.

Burgut bilan qo'ng'iz

Burgut ta'qibidan qochib borayotgan quyon ko'rdiki, na yordam berguvchi bor va na qutulishning chorasi: o'ziga birinchi duch kelgandan – qo'ng'izdan madad so'radi. Qo'ng'iz unga dalda berib ro'parasiga kelib qolgan yirtqichga yolvordi: «Mendan panoh izlaganga tegmagin!». Burgut bundayin notavon himoyachiga parvo ham qilmadi: quyonni paqqos tushirdi. Burgutdan yetgan ozorni qo'ng'iz unuta olmadi: burgut qayga in qurishini tolmay poyladi, har gal tuxum qo'ydi deguncha ularni inidan yerga dumalatib pachaqlayverdi. Hech bir joyda osoyish topolmagan burgut, nihoyat, Zevsning[1] o'zidan panoh izladi. Undan tuxum ochib olish uchun o'ziga tinch joy ajratib berishini o'tindi. Zevs burgutga mar-

[1] Zevs – yunon mifologiyasida momaqaldiroq va yashin xudosi, oliy ma'bud, ilohlar va odamlarning otasi.

hamat ko'rsatib o'z qo'yniga tuxum qo'yishga izn berdi. Qo'ng'iz buni ko'rib go'ngdan qumaloq yasadi-da, naqd Zevs qoshigacha parvoz qilib qumaloqni uning qo'yniga tashladi. Go'ngni qoqib tashlayin deb ilkis o'rnidan turgan Zevs noxos burgut tuxumlarini tushirib yubordi. Aytishlaricha, o'shandan beri burgutlar go'ngqo'ng'izlar chiqqan paytda inlariga tuxum qo'ymasmish.

Alqissa, birovni ojiz-u notavon sanab mensimaslik xato, zero, hech kimsa yetkazilgan ozor uchun o'ch ololmaydigan darajada ojiz emas.

Yovvoyi echkilar bilan cho'pon

Cho'pon echkilarini yaylovga qo'yib yubordi. Bir payt qarasa, ular yovvoyi echkilar bilan birga-birga o'tlab yurishibdi. Cho'pon xursand bo'ldi-yu kech kirgach hammasini o'zining g'origa qamadi. Ertasiga havo buzuqligi tufayli echkilarni odatdagidek yaylovga olib chiqa olmadi: g'orda boqishga to'g'ri keldi. Cho'pon o'zining echkilariga nomigagina yem solgani holda, qo'lga o'rgatib olish niyatida yovvoyi echkilarga yemni mo'l-ko'l qilib to'kdi. Ertasiga havo yurishib ketgach echkilarni yana yaylovga olib chiqqandi, yovvoyi echkilar tog'ga qarab ura qochdilar. Cho'pon ularni yaxshilikni bilmaydigan nonko'rlar deya koyishga tushdi: «Axir, men sizlarni o'zimning echkilarimdan-da yaxshiroq boqmadimmi?!» Yovvoyi echkilar aytdilar: «Shuning uchun ham sendan nariroq yurganimiz ma'qul ko'rindi-da. Bizlar kechagina senga yo'liqqandik, sen esa bizni o'zingning echkilaringdan-da yaxshiroq boqding. Demak, ertaga yana yangilari kelib qo'shilsa, unda ularni bizlardan afzalroq ko'rarkansan-da!»

Alqissa, yangi do'stlarni eskilaridan afzal tutuvchilar bilan do'stlashishga shoshilmang. Zero, yana yangi do'stlar orttirganida siz ham eskilardan bo'lib qolasiz.

Tulki bilan uzum

Och tulkining ko‘zi tokda g‘arq pishib yotgan uzumga tushdi-da, olmoq uchun bir-ikki intildi – chog‘i kelmadi; hafsalasi pir bo‘lib nari ketarkan, o‘z-o‘ziga dedi: «Hali g‘o‘r ekan!».

Alqissa, ayrim kishilar ham shunga o‘xshaydi: asli, kuchi yetmaganidan muvaffaqiyatga erisholmaydilar-da, sharoitni ro‘kach qiladilar.

Baliqchi

Baliqchi anhorda ov qilardi. U to‘rni narigi qirg‘oqdan berigisigacha tortib oqimni tamom to‘sgach arqonga kattagina toshni bog‘ladi-da, suvni shaloplatib urishga tutindi: baliq shovqindan qochib borib to‘rga ilinsin degan-da. Shu yerda yashovchilardan biri baliqchining bu xil ish bilan mashg‘ulligini ko‘rib: «Sening dastingdan toza suv icholmay qoldik-ku!» – deya uni koyishga tushdi. Baliqchi bunga javoban dedi: «Agar men suvni loyqalatmaganimda ochlikdan o‘lishimga to‘g‘ri kelur edi!»

Alqissa, demagoglar ham shunga o‘xshaydi: ular o‘z yurtlarida notinchlig-u g‘alayonlar qo‘zg‘ata olsalargina yaxshi yashaydilar.

Munajjim

Bir munajjim har kech uyidan chiqib yulduzlarni tomosha qilib yurishga odatlangan edi. Ittifoqo bir safar sayr qilib yurarkan, butun fikr-u xayoli osmonlarga ketib nogoh quduqqa qulab tushdi. Munajjimning dod-voyini eshitib yetib kelgan kishi ahvolni ko‘rdi-yu gap nimadaligini fahmlab, dedi: «Seni qara-yu, osmonda nimalar bo‘layotganini ko‘rmoqqa chog‘lanasan-u, oyog‘ing ostini ko‘rolmaysan-a!»

Alqissa, ayrim kishilar ham shunday: mo‘jizalar haqida og‘iz to‘ldirib gapirishadi-yu, o‘zlari har kas eplaydigan oddiy ishni ham uddalay olishmaydi.

Bog‘bon bilan o‘g‘illari

Qazo vaqti yaqinlashgan bog‘bon bolalarining ham mirishkor bog‘bon bo‘lishini xohlardi. Shuni o‘ylab u o‘g‘illarini to‘pladi va aytdi: «Bolalarim, toklardan birining tagiga xazina ko‘milgan!» Bog‘bon o‘lganidan so‘ng o‘g‘illari belkurag-u ketmon bilan bog‘ni ag‘dar-to‘ntar qilib kavlashdi. Xazinani-ku topisholmadi, biroq chuqur chopib ag‘darilgan tokzor har yilgidan chandon ortiq hosil berdi.

Alqissa, har qanday xazinaning kaliti – mehnat.

Baqalar

Botqoq qurib qolgach, unda yashagan ikki baqa yashash uchun yangi joy qidirib yo‘lga tushishdi. Quduq yoniga kelishganda ulardan biri o‘ylab o‘tirmasdanoq quduqqa sakrashni, shunda yashashni taklif qildi. Bunga javoban ikkinchisi dedi: «Mabodo bu quduq ham qurib qolsa, undan qandoq chiqamiz?»

Alqissa, har qanday ishni boshlashdan avval oqibatini obdan o‘ylamoq darkor.

Ho‘kiz bilan arava o‘qi

Ho‘kiz aravani tortib borarkan, o‘q tinmay g‘ijirlardi. Ho‘kiz o‘girilib xitob qildi: «Seni qara-yu! Yukni tortgan men-u, sening zorlanganing nimasi?!»

Alqissa, ba’zi odamlar ham shu: mehnatni boshqalar qilishadi-yu, ular o‘zlarini qiynalgan ko‘rsatishadi.

Borey bilan Quyosh

Shimol shamoli – Borey bilan Quyosh: «Qay birimiz kuchliroq?» – deya bahslashib qolishdi-yu shart qo‘yishdi: kimki yo‘lda ketib borayotgan odamni yechinishga majbur qila olsa – o‘sha kuchli. Borey dastlab ishga kirishib kuch bilan esa boshlagandi,

haligi kishi ust-boshiga mahkamroq o'ranib oldi. Borey yanada kuchli esdi, odam ham yanada mahkamroq burkandi. Oxiri Borey charchadi, navbatni Quyoshga berdi. Quyosh asta-sekin isita boshlagandi, haligi odam birma-bir ust-boshini yechishga tutindi. Keyin Quyosh bir qizdirib bergandi, yo'lovchi issiqqa chidayolmay yechindi-da, cho'milgani anhor tomon chopdi.

Alqissa, ko'p hollarda sabr-la ishontirish kuch ishlatgandan ko'ra samaraliroq bo'ladi.

Sa'va

Qafasdagi sa'va qoq tunda tinmay sayrardi. Uning ovozini eshitgan ko'rshapalak kelib so'radi: «Kuni bilan jim eding, nega bemahalda sayraysan?» Sa'va dedi: «So'rama, birodar, kunduzlari sayrab qafasga tushganim uchun endi faqat tunda sayraydigan bo'lganman». Shunda ko'rshapalak dedi: «Bu ehtiyotkorligingni erkinlikda yurganingda qilsang tuzukmidi, endi nima foyda?».

Alqissa, o'tgan ishga salavot.

Dehqon bilan o'g'illari

Dehqonning o'g'illari hech murosa qilisholmas, qachon qarasang, janjallashib yurishardi. Dehqon o'g'illariga ko'p nasihatlar qildi-yu, gaplari foyda bermadi: shunda ularning ko'zini jonli tamsil yordamida ochishga jazm etdi. O'g'illariga bir bog' xivchin keltirtirdi-da: «Bog'i bilan sindirib ko'ringlar», – dedi. Kuchga to'lgan o'g'illari qanchalik urinmasin, bu ishni uddalay olishmadi. Ota bog'ni yechib, xivchinlarni bittalab bergandi, o'g'illari bir zumda sindirib bitirishdi. Shunda ota dedi: «Bolalarim, sizlar ham xuddi shunga o'xshash o'zaro ahil bo'lsangiz, sizni hech kim yengolmaydi; agar janjallasha boshlasangiz, istalgan kishi mahv etadi».

Alqissa, ahillik nechog'lik yengilmas kuch bo'lsa, kelishmovchilik shunchalar ojizlikdir.

Beka bilan cho‘rilar

Ziqna bekaning cho‘rilari bo‘lib, beka ularni xo‘roz qichqirishi bilan ishga uyg‘otardi. Uyqusizlikdan sillalari qurigan cho‘rilar: «Jami ko‘rgiliklar shu xo‘rozning kasofatidan, shu juvonmarg bo‘lgur bekani yarim tunda uyg‘otmaganida, mana bu ko‘rgiliklar yo‘g‘iydi», – deb o‘ylardilar. Xullas, cho‘rilar xo‘rozni o‘ldirmoqqa qaror berdilar. Shunday qildilar ham. Oqibatda umuman vaqtni farqlay olmay qolgan beka ularni avvalgidan-da ertaroq uyg‘otadigan bo‘ldi.

Alqissa, ko‘pchilikning hiyla-nayrangi o‘z boshiga yetadi.

Beva bilan tovug‘i

Beva xotinning bisotida bittagina tovug‘i bo‘lib, kuniga bittadan tuxum qo‘yardi. Beva o‘zicha: «Tovug‘imga ko‘proq don bersam, kuniga ikkitadan tuxum qo‘ysa kerak!» – deb o‘yladi. Shunday qildi ham, natijada ko‘p yeganidan tovug‘i semirib ketdi va umuman tuxum qilmay qo‘ydi.

Alqissa, ba’zilar ochko‘zlik bilan ko‘proq narsaga ega bo‘lishni istaydilar-u boridan ham judo bo‘ladilar.

Latcha

Latcha temirchi do‘koniga kirib qoldi-yu bir chetda turgan arrani yalashga tushdi. Sho‘rlikning tili kesilib qon kela boshladi hamki, arraning shirasini shimyapman degan xayolda xursand yalayverdi. Oqibatda tamom tildan ayrildi.

Alqissa, ayrim kishilar ham shunday: tamaning ko‘yida yurib o‘ziga ziyon yetganini sezmay ham qoladilar.

Chiroq

Bilgilki, shuhrat-u hashamat kishining ko'zini qamashtirib qo'ymasligi lozim, zero, ular o'tkinchidir.

Chiroq piligi yog'ni rosa shimirib olgach yarq etib yondi-da, quyoshdan ham yorqinman deya maqtana boshladi. Shu on yengilgina shabada esdi-yu chiroq o'chdi-qoldi. Kimdir uni qaytadan yoqarkan, dedi: «Jimgina yonishingni bil, yorqinlikda quyoshni ortda qoldirishga baribir chog'ing kelmaydi!».

Surchi

Bilgilki, zolim hukmdorlarni yomon ishlarga undovchilar ulardan-da ortiqroq ayblidirlar.

Qo'shinda bir surchi bo'lib, uning vazifasi sur chalib hammani dushman bilan jangga boshlash edi. Kunlardan bir kuni u dushman qo'liga tushib qoldi. O'zining bor-yo'g'i sur chalishini, birovni o'ldirmaganini ham, talamaganini ham aytib shafqat tiladi. Unga dedilar: «Yo'q, o'zing urishmaganing bilan boshqalarni jangga chorlagansan – bizga hammadan ko'ra ziyoning ko'p tekkan!».

Yarador burgut

Bilgilki, yaqinlardan yetgan ozorning og'rig'i chandon ortiqdir.

Burgut qoyada quyonlarni kuzatib, tashlanish uchun qulay payt poylab o'tirardi. Unga ko'zi tushgan ovchi kamoniga o'q joyladi-yu mo'ljallab otdi: o'qning uchi burgutning to'shidan teshib o'tib par qadalgan keti shundoq ko'z oldiga kelib to'xtadi. Buni ko'rib burgut iztirob-la dedi: «E voh, o'z parlarimdan ajal topganim uchun ham iztirobim ikki hissa ortiq!»

Temirchi bilan it

Bilgilki, yalqov, tekinxo'r, tayyorga ayyor kimsalar bamisoli temirchining itiga o'xshaydi.

Temirchining iti bor edi. Egasi kuyib-pishib sandonga bolg'a urganida bir chetda mudrab yotgan it u ishini tugatib tushlikka o'tirishi bilanoq dumini likillatib yetib keldi. Egasi unga suyak tashlarkan, dedi: «Hayf senga-ye, xudo urgan yalqov ekansan! Gursillatib bosqon urganimda pinak buzmaysan-u, tishlarimning taqillashiga uyg'onganingni qara-ya!»

Sopol xumcha bilan mis xumcha

Bilgilki, faqirning boy-u ochko'z kishi bilan qo'shni turishi xatarlidir.

Anhorda bitta sopol xumcha bilan bitta mis xumcha oqib borardi. Sopol xumcha mis xumchaga yolvordi: «Mendan nariroq yurgin-da, xudo haqqi, yaqinlashmagin: sen meni turtib yuborasanmi yoki men senga tegib ketamanmi, baribir, sinadigan menman!».

Tulki bilan arslon

Tulki arslon xizmatida bo'lib, uning vazifasi shikorbop joylarni aniqlash edi. Tulki shunday joyni ko'rsatar, arslon ov qilar, so'ng o'lja har kimning xizmatiga yarasha taqsimlanardi. Tulkining nazarida, arslon uning xizmatini yetarli qadrlamayotgandek ko'rindi-yu podaga o'zi hujum qilishga jazm etdi: oqibatda o'zi ovchilarga o'lja bo'ldi.

Alqissa, bexavotir tobelik xavfli hokimlikdan a'lodir.

Qarg'a bilan oqqush

Qarg'a oqqushni ko'rib uning oppoq patlariga havas qildi. Muntazam cho'milib tursam o'zim ham shunday bo'larman deb xayol qildi-da, o'zi oziqlanib turgan qurbongohlarni tashlab daryo va ko'llar bo'yida yashay boshladi. Biroq qancha yuvinmasin – patlari qoraligicha qoldi, yangi joylarda emish kamligidan ochlikdan sillasi qurib o'ldi.

Alqissa, inson turmush tarzini qancha o'zgartirmasin, tabiati o'zgarishsiz qolaveradi.

Tulki bilan tipratikan

Samos shahrida bir demagog amaldorning jinoiy ishi ko'rilayotgandi, Ezop uning himoyasiga so'z olib dedi: «Tulki anhor chetidagi xandaqqa tushib qoldi-yu anchagacha undan chiqolmay qiynalgani yetmagandek, a'zoyi badaniga chippa yopishgan zuluklardan behad aziyat chekdi. Qirg'oqdan o'tib borayotgan tipratikan tulkining holini ko'rib rahmi keldi-yu so'radi: «Birodar, badaningdagi zuluklarni terib tashlayinmi?» Tulki ko'nmadi. Tipratikan hayron bo'lib so'radi: «Nega axir?» Tulki tushuntirdi: «Bu zuluklar qonimga rosa-a to'ydilarki, endi zo'rg'a-zo'rg'a so'rmoqdalar. Agar sen ularni olib tashlasang, ularning o'rniga ochlari keladi-yu qonimni tamom so'rib bitirishadi».

«Samos fuqarolari, – dedi gapini yakunlab Ezop, – o'sha zuluklarga o'xshab bu odam ham endi sizlar uchun xavfli emas, chunki qorni to'ygan. Mabodo uni qatl etsangiz, uning o'rniga boshqa och amaldor keladi-yu bor-budingizni shilib oladi».

MUNDARIJA

Tarjimondan 3
Burgut, zag'cha va cho'pon 4
Burgut bilan qo'ng'iz 4
Yovvoyi echkilar bilan cho'pon 5
Tulki bilan uzum 6
Baliqchi 6
Munajjim 6
Bog'bon bilan o'g'illari 7
Baqalar 7
Ho'kiz bilan arava o'qi 7
Borey bilan Quyosh 7
Sa'va 8
Dehqon bilan o'g'illari 8
Beka bilan cho'rilar 9
Beva bilan tovug'i 9
Latcha 9
O'tinchi chol bilan ajal 10
Ikki oshna bilan ayiq 10
Eman bilan qamish 10
Bug'u bilan sher 11
Tulki bilan maymun 11
Eshak, xo'roz va sher 12
Bo'ri bilan uloqcha 12
Bo'ri bilan echki 12
Haykal sotuvchi 13
Dehqon 13
O'g'rilar bilan xo'roz 13
Ochko'z itlar 14
Pashsha bilan ho'kiz 14
Quyonlar bilan baqalar 14
Arslon bilan baqa 15
Arslon bilan tulki 15
Arslon bilan ho'kiz 15
Arslon bilan sichqon 16
Arslon bilan quyon 16
Arslon, eshak va tulki 17
Qaroqchi bilan tut 17
Bo'rilar bilan qo'ylar 17
Bo'ri bilan laylak 18
Bo'ri bilan echki 18

Bo'ri bilan kampir 19
Bo'ri bilan sovliq 19
Sovliq bilan bo'ri 19
Folchi 20
Mushuklar bilan sichqonlar 20
Chumoli 20
Pashsha 21
Isrofgar yigit bilan qaldirg'och 21
Ko'rshapalak bilan latcha 21
Yo'lchi bilan taqdir 22
Yo'lchilar bilan chinor 22
Yo'lovchi bilan ilon 23
Yo'lchi bilan Hermes 23
Bog'bonning eshagi 23
Ustiga tuz yuklangan eshak 24
Eshak bilan xachir 24
Ustiga haykal yuklangan eshak 25
Yovvoyi eshak 25
Eshak bilan chirildoqlar 25
Arslon terisini yopingan eshak 26
Eshak bilan baqalar 26
Eshak, qarg'a va bo'ri 26
Eshak, tulki va arslon 27
Qushchi bilan to'rg'ay 27
Qushchi bilan laylak 27
Chigirtka tutayotgan bola 28
O'g'ri bilan onasi 28
Boy bilan ko'nchi 28
Cho'pon bilan dengiz 29
Yolg'onchi cho'pon 29
Anor bilan olma daraxti 30
Ho'kiz bilan yovvoyi echkilar 30
Maymunning bolalari 30
Tovus bilan zag'cha 30
Tuya, fil va maymun 31
Xasis 31
Toshbaqa bilan quyon 32
G'ozlar bilan turnalar 32
Toshbaqa bilan burgut 32
Xonaki kaptarlar bilan yovvoyi kaptarlar 33
Yong'oq 33
Tulki bilan ona sher 33

Bo‘ri bilan qo‘zichoq....34
Qushchi bilan tustovuq....34
Ilon bilan chuvalchang....34
Quyonlar bilan tulkilar....35
Eman....35
Qayrag‘och bilan chaqirtikanak....35
Odam bilan sher....35
It bilan shilliqqurt....36
Xo‘rozlar bilan burgut....36
To‘rg‘ay....37
Bulbul bilan qaldirg‘och....37
Echki bilan eshak....37
Cho‘pon bilan echki....38
Dehqon bilan tulki....38
Qari ot....38
Buzoq bilan ho‘kiz....39
Turna bilan tovus....39
Sher, to‘ng‘iz va quzg‘unlar....39
Yolg‘onchi cho‘pon....40
Kalxat....40
O‘sallagan qarg‘a....41
Qo‘ng‘iroqchali it....41
Qo‘rqoq ovchi....41
Chiroq....42
Surchi....42
Yarador burgut....42
Temirchi bilan it....43
Sopol xumcha bilan mis xumcha....43
Tulki bilan arslon....43
Qarg‘a bilan oqqush....44
Tulki bilan tipratikan....44

Adabiy-badiiy nashr

EZOP

YOLG‘ONCHI CHO‘PON

Masallar

Muharrir: Abdulla SHAROPOV
Badiiy muharrir: Bahriddin BOZOROV
Texnik muharrir: Dilshod NAZAROV
Sahifalovchi: Inomjon O‘SAROV
Musahhih: Elbek JUMANOV

Nashriyot litsenziyasi: AI №134, 27.04.2009
Terishga berildi: 24.01.2017-y.
Bosishga ruxsat etildi: 24.06.2022-y.
Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi: 84x108 $^{1}/_{32}$.
Selina garniturasi. Ofset bosma.
Hisob-nashriyot t.: 2,2. Shartli b.t.: 2,5.
Adadi: 3000 nusxa.
Buyurtma № 16/120

«AKADEMNASHR» nashriyotida tayyorlandi.
100185, Toshkent shahri Chilonzor tumani So‘galli ota ko‘chasi 5-uy.

Tel.: (+99899) 433-16-77
e-mail: info@akademnashr.uz
web: www.akademnashr.uz

«PRINT LINE GROUP» XK bosmaxonasida chop etildi.
100097, Toshkent shahri Bunyodkor shohko‘chasi 44-uy.

ISBN 978-9943-4296-0-4